

Husnida Bahromova

Musavviz xayol

«FARG'ONA» NASHRIYATI
HAZOPAT HUSXA

«FARG'ONA» nashriyoti,
2012 yil.



UDK: 821.512.133-1

84(59)7
B37

925.0908

Bahromova, Husnida. **Musavvir xayol** // She'rlar / H. Bahromova
Farg'ona: «FARG'ONA» nashriyoti, 2012 y. -32 b.

Taqrizchi:
filologiya fanlari doktori
Siddiq Mo'min

E'tiboringizga havola etilayotgan to'plamning "Musavvir xayol" deb nomlanishi bejiz emas. Navqiron qalamkash unga kiritgan bitiklarida betakror mavsum – yoshlik bahoriga rang berayotgan eng g'ozal, musaffo tuyg'ulari suratini chizishga harakat qilgan. Aksar hollarda bunga erishgan. So'zlar vositasida yorqin chizgilar yaratishga havasmandligi uning hali ko'p ijodiy muvaffaqiyatlarga erishishiga umid uyg'otadi.

ISBN: 978-9943-349-35-3

UDK: 821.512.133-1
KBK: 84(59)7

HD 40630
0

Alisher Navoiy

nomidagi

O'zbekiston MK

© «FARG'ONA» nashriyoti, 2012
© Husnida Bahromova

SO'Z BOSHI

Yurak-hayot bilan hamnafas hislar makoni. Yurakni his qilmoq, uning nadir so'zi, nadir bir onlik baxt soniyasiga zumlik fursat ila quloq tutmoq va ranglar dunyosini kashf etish bilan xayol otlig' benihoya go'zal musavvirning dunyo ganjida tovlangan betakror manzaralarida huzur etmoq bu – faqat ijodkor shoirning baxtdan yaralgan go'zal hayotidir. Mana shu yo'l uni kutishga, orzu qilishga, hayotni sevishga, oldinga intilishga undaydi. Yurakda yashagan matonat hamisha umidli bo'lishga chorlab turadi:

*Kutaman, kelajak ranglari sabab,
Go'zal kechalarning tonglari sabab,
Umidning tunganmas onlari sabab,
Kutaman...*

Kutishdan aslo kechmaydi. Zero, kelajakning rangdan yo'g'rilganiga, betakror kechalarning nurafshon tonglariga, umidli lahzalarning hisobsiz bo'lmog'iga qalban ishonadi va ishontiradi. Kutishning lazzati hijron, samari baxt ekanini anglay oladi. Qizg'in hayot sahnalarida shoshayotgan odamlarga qarata o'zining «Keling yo'lingizni hamrohi bo'lay...» nomli she'rida shunday deydi:

*Keling, so'roqlaylik kunlarni birga,
Hayot kundaligin varaqlab asta.
G'uncha-yu gullarni taqib xotirga,
Bugunga qaytaylik biz yana qayta.*

Qizig'i shundaki, shoira xotira nomli haqiqatga tik boqib, uning inson ruhiyati bilan chambarchas bog'lanib ketganligini, birini ikkinchisiz tasavvur etib bo'lmasligini nozik tasviriy qirralar bilan mukammallashtirib bera olgan va keyingi bandlarda tasvir, holat manzaralarini yanada chuqurlashtirib izohlagan.

Illo, qalblardan otilgan tillarda jarang sochgan ushbu so'zlarning shijoati ko'zlarni tark etmasin. Har gal «Musavvir hayol»ni qo'lingizga olganingizda so'zning sehri ila ko'ngillar maskanini obod aylamak orzusi so'nmas quyosh yanglig' porlasin va aning nurlari zulmat cho'kkan dillarni ziyoga burkasin. Lablarda qotgan kulguni abadiyatga olib borsin.

Shoiraga ulkan zafar tilamak, duoga qo'l ochmak ustozlar baxtidir!

L. Rustamova,
filologiya fanlari nomzodi.

VATAN

Kimlardir ta'rifing topdi kitobdan,
Yana kimlar seni atadilar sha'n.
Men esa beqiyos, go'zal surating
Ko'nglinga to abad naqsh etdim, Vatan.

Keng bog'ingda kezib, lola-gullaring
Yuragim tomiga o'tqazgim kelar.
Boqiy tinchliging-u, erkingni ko'rib,
Yuzlarim sevinchdan gul kabi kular.

ODDIY MAYSA BO'LAY

Ona yurtim, go'zal maskanim,
Quchog'ingda yayrayman shodon.
Momoginam ertagidagi
Jannatimsan nurli, qadrdon.

Aytgin, onam, mehribon, aziz,
Shamollarga aylanayinmi.
Novdalaring bo'ynidan quchib,
Tog'lar tomon shaylanayinmi.

Bulut bo'lib, oltin boshingda
Tuproq'ingga bo'layin madad.
Mayli, oddiy maysa bo'lsam ham,
Menga vatan bo'laqol abad.

EZGULIK

Ezgulik bog'ida ochilgan gullar
Ifor taratadi ko'kka bo'y cho'zib.
Unga mehr qo'ygan insonlar mudom
Yaxshilik qilishar zavq-shavqqa to'lib.

Ba'zan jimirlagan zilol chashmadan
Chanqoqni qondirib bo'lmaydi sira.
Yaxshilik qil agar, qo'lingdan kelsa,
Shunda do'stlar ta'bi bo'lmaydi xira.

Bundanda ajibroq zavq bormi asli,
Ko'z o'ngingda nurga to'ladi dunyo.
Yaxshilik kurtagi barg yozsa hali,
Poklikka burkanar zamin-u samo.

QISHLOQ TONGI

Erta tongdan asta esgan mayin shamol,
Rayhonlarning shoxlaridan uzib kelar.
Ariqlari o'rab olib guldor ro'mol,
Ko'lmaklarin yuragini ezib kelar.

Giyohlarning yuragiga solib havas,
Simiradi xonqizilar shabnamlarni.
Bolarilar gul isidan olib nafas,
Yaratadi dunyodagi gul ta'mlarni.

Xirom aylab qaldirg'ochning kuylariga,
Kapalaklar bulutlarga uzatar qo'l.
Chapak chalib tong va orzu to'ylariga,
Go'zal hislar tizilgancha turar o'ng-so'l.

SHUNDAY KO'KLAM BOSHLAB KELGINKI...

Gulshanoyga

Shunday ko'klam boshlab kelginki,
Yuragimda ochilsin gullar.
Shunday ko'klam boshlab kelginki,
Yo'llarimga yog'ilsin nurlar.

Ishon, qadring chunon bilinib,
Sog'inchingda zorlandi yurak.
Gul shoxiga qolay ilinib,
Guloblardan simirsin tilak.

Qizg'aldoqning yuzin silagan,
Kaflarimda unsin chechaklar.
Ko'z o'ngimni to'ldirib birdan,
Shabbodalar aytsin ertaklar.

Unut bo'lib ketsin rangsizlik,
Yorqinlikda jilvalansin kun.
Yoddan chiqsin abad sensizlik,
Baxtnomamiz yozilsin bugun.

Shunday ko'klam boshlab kelginki,
Yuragimda ochilsin gullar.
Hislarimni gulday yashnatib,
Men-la mangu qolsinlar ular.

YULDUZLARDAN YOG'ILIB SIM-SIM

Yulduzlardan yog'ilib sim-sim,
Shabnamchalar chizishar surat.
Gul labida o'ynab tabassum,
Uyg'onadi bog'larda hayrat.

Cho'qqilarni qo'riqlar bulut,
Ko'rpasini yopib boshiga.
Barglarini berar bunda, tut
"Osh bo'lsin" deb ipak qurtiga.

Bir-biriga qilishar ta'zim,
Ko'l yuzida bir juft oqqushlar.
Nariroqda baqalar bazm
Aylagancha ko'ngilni xushlar.

Hardamxayol navqiron daraxt
Sirlarini aytar saboga.
Mittigina xushovoz bulbul
Dil so'zlarin solar navoga.

Qo'shgilosga yozganча g'azal,
Vatan, shoning tutib o'tsaydim.
Bog'laringdek bezavol, cheksiz
Go'zal ishqqa singib ketsaydim.

KUTAMAN...

Kutaman, niyatlar ro'yobi uchun,
Shirin orzularning iqboli uchun,
Sinmas haqiqatlar kamoli uchun,
Kutaman...

Kutaman, kelajak ranglari sabab,
Go'zal kechalarning tonglari sabab,
Umidning tuganmas onlari sabab,
Kutaman...

Kutaman, baxtlarning bag'rida turib,
Xayollar shahrining taxtida turib,
Ulkan yuragimning ahdida turib,
Kutaman...

Kutaman, yam-yashil maydonlar bilan,
Har qanday berilgan imkonlar bilan,
O'zimdek xushchaqchaq jayronlar bilan,
Kutaman...

Men sizni kutaman...



HAYOT ZAVQI

Ishoning, yashamoq aslo qiyinmas,
Yashashni bilsangiz, bo'ldi sevinib.
Umr haqiqatdir, sira o'yinmas,
Kimnidir sevsangiz bo'ldi sog'inib.

Hayot o'rgatadi o'zi birma-bir,
Tashvishlar hukmiga yechim topishga.
Kun kelib yo'l berar albatta taqdir,
Kelajakka sari ildam chopishga.

Omadga ishoning, baxtli qadamlar,
Baxt bisyor manzilga eltadi sizni.
Niyatlar birlashsa, so'nib alamlar,
Orzular chorlaydi maqsadingizni.

Kimnidir sevsangiz bo'ldi sog'inib...



XAYOL

Xayol, seni sog'indim,
Kelmaysanmi hol so'rab.
Xayol, seni sog'indim,
Nega ketding uzoqlab.

Bir bor meni yo'qlagin,
Intizorman yo'lingga.
Shu on yonimda bo'lgin,
Oro kirgin jonimga.

Baxtga to'la ko'nglimda
Bir kecha bo'lgin mehmon.
Birga bo'lgin yonimda,
Sirlashaylik, qadrdon...

Xayol, seni sog'indim,
Kelmaysanmi hol so'rab.
Xayol, seni sog'indim,
Nega ketding uzoqlab...

* * *

Sirdaryoning suvlariga sirim aytib,
Suvlar bilan sirdosh bo'lib qolsam kerak.
Saharlarda sabolardan sado kutib,
Sog'inchlarim qo'shiqlarga so'lsam kerak.

Siz kelib sadoqat saltanatidan,
Sog'inch satrlarim soatlab o'qing.
Sabrning samimiy sarhadlarida
Sevgi so'zlaridan salomlar biting.

SEVAMAN

Sevaman onamning boshimni silab,
Aytgan duolari ijobatini.
Sevaman otamning baxtimni tilab,
Yashashga o'rgatgan shijoatini.

Sevaman ukamning shamollar bilan
Varragin uchirib o'ynashlarini.
Sevaman singlimning xayollar bilan,
Daftarin quchoqlab o'ylashlarini.

Sevaman, do'stlarim kulgularida
Shodonlik, muhabbat, matonat bo'lsa.
Sevaman, yaqinlar yuraklarida
Yaxshilik, halollik, qanoat bo'lsa.

Sevaman ustozlar o'gitlarini,
Kelajak tasviri chizilib tursa.
Sevaman Ollohning berganlarini,
Dilimda shukrona sezilib tursa.

Sevaman dilbandim degan vatanni,
Bag'rida umrbod abadiy qolib.
Sevaman osmonni, quyoshni, oyni,
Yulduz yog'dusidan andoza olib.

SEN KELSANG ...


Sen kelsang, tark etar g'amlar bir zumda,
Shodlikdan yayraydi bu sho'r peshona.
Barcha azoblarin unutganicha,
Endi o'z bag'riga tortmas bo'sh xona.

Sen kelsang, uzun tun qafasidagi
Beg'ubor tuyg'ular aytadi alyor.
Tonglarning entikkan nafasidagi
Orzular shodasi tizilar qator.

Sen kelsang, yig'loqi dilni ovutib,
G'unchalar bag'rida o'ynamas titroq.
Shamollar she'r yozsa qo'lingdan tutib,
O'qib quvonadi ming-ming qizg'aldoq.

Sen kelsang, poylaring o'par majnuntol,
Sharshara sochlaring ko'ziga surib.
Sirlarin aytganicha, so'raydi ahvol,
Mitti farishtalar qo'lingdan tutib.

Sen kelsang, barchasi o'zgarar, bahor...



KELING, YO‘LINGIZNING HAMROHI BO‘LAY...

Keling, yo‘lingizning hamrohi bo‘lay,
Yuraklar aylansin marjon qoyaga.
Baxtli lahzalarning guvohi bo‘lay,
Ko‘zlarim o‘rgansin sizdek soyaga.

Abadiy tabassum sohillaridan
Marvaridlar olib, ko‘kka uchaylik.
Orzuning qirq o‘rim kokillaridan
Biriga boylanib, dilni quchaylik.

Keling, so‘roqlaylik kunlarni birga,
Hayot kundaligin varaqlab asta.
G‘uncha-yu gullarni taqib xotirga,
Bugunga qaytaylik biz yana qayta.

Ertak yarataylik ishonchimizdan,
Ishongan qalblardan ketmasin u, yo‘q!
Ulkan mehr nomli tayanchimizdan
Muhabbat yaralsin – ko‘ksimizda cho‘g‘!



SIZ

Siz shunday orzusiz, yetib bo'lmaydi,
Biroq sizensizlikka ko'nmoqlik qiyin.
Sevmoqqa loyiqsiz, suymay bo'lmaydi,
Ishonchim ortmoqda bunga kun sayin.

Aylanib oldingiz, bilmadim qachon,
Mening dardi doston yurakkinamga.
Nigohim sofligin sezmasdan hamon,
Ozorlar berasiz tilakkinamga.

Shunda ham yaqinsiz abadul-abad,
Hayotning ajralmas, buyuk naqshisiz.
Rahmingiz kelmasin, mayliga, faqat,
Men kabi yomonga siz eng yaxshisiz...

KELMAYSAN NEGA?

Qara, mag'rur boshim egildi mahzun,
Bu jafokash damlar bunchalar uzun,
Men emas, yuragim yig'laydi xun-xun,
Ruxsori matlubim, kelmaysan nega?

Bo'ynimda diydorlar yuklari turar,
Alamlar jonimni chimdilar, o'yar,
Ertaga, ertaga bilmam ne bo'lar,
Ruxsori matlubim, kelmaysan nega?

Labim pichirlatar so'zlar atayin,
Ro'yoga aylanar o'ylar kun sayin,
Ko'ngling och, devona bo'lib qolmayin,
Ruxsori matlubim, kelmaysan nega?

POLIZLARDA QARSILDOQ TARVUZ

Polizlarda qarsildoq tarvuz
Bag'rin berib yotar quyoshga.
Bolaligim o'ynagan hanuz,
Keng dalalar, bilmam, qay yoshda.

Osmoniga bo'y cho'zayotgan
Teraklari navqiron, o'ktam.
Kundan-kunga ulg'ayayotgan,
Zar tarixi, ayting, nedan kam.

Toshlarini bezab chechaklar,
Ulug' tog'lar barpo etadi.
Xalq tilida doston, ertaklar
Yana ming-ming yilga yetadi.

O'zbek yurti o'zi shunaqa,
Ezgu tilak ekar yurakka.
Yaxshilikni yorqin iplar-la,
Bayroq qilib tikar yurakka.

Orzularni yetaklar shamol,
Ajabtovur bir o'lka tomon.
Bulut yo'lak chizadi darhol,
Borliq bilan sirlashgan zamon.

POYLARINGDA QOLAR HISLARIM

Poylaringda turar hislarim,
Uvollari tutadi bir kun.
Oh, bag'ritosh, eh, sen berahm,
Anglamaysan xatoing nechun.

Seni eslab parishon xayol
Ayblaydi faqat o'zini.
Beparvo ishq keldiku malol,
Eshitmaydi endi so'zini.

Qoldiraman barini bugun,
Hislarimni senga omonat.
Iloj topib holimni tushun,
Qolmadiku menda matonat.

Ko'z yosh qilish navbati senga
Kelar bir kun, hijronni quchib.
Agar kirar bo'lsam tushingga,
Uyg'onmagin uyqungdan cho'chib.

Poylaringda qolgan hislarim
Titratadi bir kun dunyoni.
Oh, bag'ritosh, eh, sen berahm,
Sen o'zgartir endi dunyoni.

Kelsa agar qo'lingdan, mana,
Sen o'zgartir endi dunyoni...

201 3/14 A. 1024	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK
---------------------	--

OG'RINDIM

Og'rindim, bag'ritosh toshbag'irlarning
Na shirin suxani, na salomi bor.
Bilmadim, xum kabi bo'shbag'irlarning
Dunyodan olguvchi ne alami bor.

Sovuq nigohlari ko'ksimni tilib,
Yashashdan umidni uzdirmoqchiday.
Hayotning shartini masxara qilib,
O'zin o'yinlarin o'tkazmoqchiday.

Dunyoni ayblab shafqatsizlikda,
Chora izlamoqni bilmayaptilar.
Umrini o'tkazib toqatsizlikda,
Do'stlar yuraklarin tirnayptilar.

Og'rindim, toshbag'ir, bag'ritoshlarning
Na shirin suxani, na kalomi bor.
Bilmadim, xum kabi bo'shbag'irlarning
Dunyodan olguvchi ne alami bor!



O, YOSHLIK...

Senda farishtalar yurakda yashab,
Oqlikka o'raydi shirin xayolni.
Hislarning boshida lolaga o'xshab,
Raqsiga chorlaydi erka shamolni.

Hatto fasllar ham sog'inib kelar,
Bir umr ko'nglingni olmoqlik uchun.
Oydin kechalarin tonglarga ular,
Toza nigohingda qolmoqlik uchun.

Tushida ko'rmoqni istab orzular,
Go'zallik bag'ridan izlaydi seni.
Tinmay isming aytgan telba tuyg'ular,
Dunyoni sensirab, sizlaydi seni.

O, yoshlik umrimning lolazor yo'li!

* * *

Men ojizman, hayot tog'ida
Bitta guldek yashay olmasam.
Men telbaman, sevgi bog'ida
Muhabbatga ishonolmasam.
Arzimasman, agar kun kelib,
Ishonchsizlik yoqasin tutsam.
Yomondirman gar odamlardan
Mehr bermay, mehrni kutsam.

MENI ESLANG

Bahorlar o'rnini qorlar olganda,
Ochilgan gullar ham xazon bo'lganda,
Bu ishq qalbingizga sog'inch solganda,
Meni eslang...
Men ham sizni eslayman...

Qalban o'zingizni yolg'iz sezganda,
Dilingizda armon sassiz kezganda,
Ko'ngil oynasida g'amlar suzganda,
Meni eslang...
Men ham sizni eslayman...

Armonlar o'rnini olsa orzular,
Umid-la do'st bo'lib qolsalar ular,
Sizga yaqin sirdosh bo'lsa qayg'ular,
Meni eslang...
Men ham sizni eslayman....



KUMUSH ZARRALAR

Ko'kdan yog'ib kumush zarralar mayin,
Qulog'im ostida chaldi sozini.
O'z o'rnini topdi vaqt o'tgan sayin,
Sokin yerga asta bosib yuzini.

Tim qorong'u tunga baxsh etib ziyo,
Yengilgina uchar harir injular.
Qahraton sovuqqa qilmayin parvo,
Dilinga solyapti qaynoq tuyg'ular.

Ne sinoat, ko'zim hayron, tilim lol,
Oy bag'ridan yog'ilmoqda yog'dular.
Gerdaygan terakning qaddi bo'ldi dol,
Qayga ketdi, shuncha g'urur, tuyg'ular.

Hamon o'ynab-o'ynab yog'moqda qorlar,
Tunning qora bag'rin oqlikka bog'lab.
O'zin ko'tarolmay qoldi-ku dorlar,
Qor esa yog'moqda, ko'ngilni chog'lab...



OTA

Hayotdan ko'nglim to'q, shirin orzular
Yuragim to'rida aytadi alyor.
Siz sabab yiroqdir tashvish-qayg'ular,
Siz sabab dilimda yashar iftixor.

Chinakam insonning asl g'ururi,
Sizdek mehribonim jonidan o'tgan.
Umrning tuganmas saxovat nuri
Qalbinga mehringiz ila birikkan.

KELING, MEHMONGINAM...

Keling, mehmonginam, mehmonjonginam,
Joningizga mani jonim boylansin.
Keling, mehmonginam, mehmonjonginam,
Qalbingizga mani mehrim joylansin.

Ostonamiz to'lsin poy qadamingiz
Boshlab kelgan fayz-u tarovat bilan.
Yuragim yashnasin oy yuzlaringiz
Nuridan taralgan harorat bilan.

Ezgu niyat ila tayin etganmiz
Uyimiz, ko'nglimiz to'rini siz-chun.
Sizga deb borimiz atab qo'rganmiz,
Dildoshimiz bo'ling har lahza, har kun.

Keling, mehmonginam, mehmonjonginam,
Diydor sevinchiga cho'lg'onsin yurak.
Dunyoda sog'inib, mehr ulashib
Yashashdan ortiq baxt bo'lmasa kerak...

DO'STLIK

Jami shodliklarni sizga tilayman,
Quvonch sohilidan gavharlar terib.
Do'stlar, yoningizda birga bo'lay man,
Dilingizdan ketsin muzliklar erib.

Birga bo'laylikki, kelsin havasi
Hatto o'zimizga o'zimizni ham.
Borliqni qamragan do'stlik nafasi,
Asiri aylasin ko'zimizni ham.

Shunday so'zlaylikki, so'zlarimizni
Eshitmay qolishdan hayiqsin quloq.
Hayot birlashtirsin yo'llarimizni,
Ayro ko'chalardan yuraylik yiroq.

Umid qo'llarini tutganча mahkam,
Shirin tashvishlarga izlaylik javob.
Qaddimiz ko'tarib, yashaylik bardam,
Do'stni qadrlamoq eng oliy savob.

Ko'ngil xazinasi bo'lib qolsinki,
Har bir lahzasiga aylaylik vafo.
Umrimiz daryosi oqarkan toki,
Do'stlik rishtalarin asrasin xudo.

Do'stlar olamdagi eng yorug' yog'du,
Do'stlik olamdagi eng ulug' tuyg'u...

BIR SIRNI AYTAMAN...

**Qarang, kech kuzakning barglari misol,
Sarg'ayib, holimdan toyib boryapman.
Meni uzib ketar oddiy bir shamol,
Sizsiz o'zimdanda ham tonib boryapman.**

**Bilaman, kelasiz nurni quchoqlab,
Balki faqat bir bor holim so'rgani.
Men esa tonglardan sizni so'roqlab,
Kutaman mehrdan qasr qurgani.**

**Qalbm his etadi o'shanda sizni,
Hech qanday nozlarsiz, hech bir bo'yoqsiz.
Bir sirni aytaman, eshitasizmi?
Siz mening ko'ksimda urgan titroqsiz!**

**Bir sirni aytaman, eshitasizmi?
Siz mening ko'ksimda urgan titroqsiz!..**



BILLUR PARCHA

Maysalar qulog'ida billuriy sirg'a,
Yaproqlar nigohida asta jimirlar.
Gullarning yuzidan joy olib zo'rg'a,
Shamolga hamohang mayin raqs tushar.

Mitti-mitti, tiniq shaffof oynalar,
Tinmay sakrayverar ishkorn sahnida.
Ta'rif etolmayman, lol qolar tillar,
Shabnam esa o'ynar borliq bag'rida.

Subhidamlar go'zal, ming bir bo'lakcha,
Ming bitta dillarga tuyg'ular solar.
Shamsiy shu'lalardan chizsa yo'lakcha,
Barglarning ostiga berkinib olar.

Ajib mo'jizaviy billur shabnamcha,
Yulduz yog'dusidan yog'ilgan parcha.



BIZ HAM BAXTLI BO‘LARMIZ BIR KUN

Biz ham baxtli bo‘larmiz bir kun,
Atagani bordir bizga ham.
Orzularga yetishmoq uchun
Kurashamiz ishonch-la har dam.

Tasavvurning ummonlarida
Sanab bo‘lmas baxtlar tizilgan.
Yuragimning osmonlariga
Taqdirimiz shunday chizilgan.

Kutamiz-u, kutamiz mana,
Hijronlarning ko‘ylaklari tor.
Hammasini yengamiz yana,
Bizning sabr tog‘larimiz bor.

Ohimiz bor uzundan-uzun,
Sog‘inch bilan birga o‘ynagan.
Ko‘zimizda ishonch bor uchun,
Kutishlarga hali to‘ymagan.



BALKI...

Garchi dunyoda ko'p buyuk ishlarni
So'rog'iga yechim topib bo'lishgan.
O'tkir fikrlar-u, shoh satrlarni,
Qalblar daftariga yozib bo'lishgan.

Qo'shiqlar kuylangan Shashmaqomlarda,
Balki dillar shundan oshno navoga.
... Balki yana minglab ezgu amallar
Biz orqali kelar go'zal dunyoga.

Balki...



MUSAVVIR XAYOL

Gullarning muattar isiga oshiq,
Tonglarning munavvar iziga oshiq,
Hayotning muqaddas hisiga oshiq,
Yaxshilik izdoshi – musavvir xayol.

Yurakning muazzam dur koni misol,
Umidning mujassam makoni misol,
Ko'ngilning mukarram imkoni misol,
Orzular dildoshi – musavvir xayol.

Tilakning muyassar bo'stoni kabi,
Yillarning muhabbat dostoni kabi,
Zaminning muruvvat oshyoni kabi,
Yaxshilar sirdoshi – musavvir xayol.

Osmonning musaffo havosi yanglig',
Dardlarning muhayyo davosi yanglig',
Umrning muddao duosi yanglig',
Dunyoning yo'ldoshi – musavvir xayol.



IZLARIM GUL, SO'ZLARIM GUL...

Izlarim gul, so'zlarim gul,
Gul ko'nglimga bahor keldi.
Yong'irning sho'x tomchilari
Lola atrin olb keldi.

Shabbodalar mayin esar,
Maysalarga solib titroq.
G'unchalarning yuzin silar
Oshiqqancha mitti yaproq.

Tarqalmoqda falak uzra
Sumalakning totli isi.
Dillarda jo'sh urar bunda
Charchoq bilmas yoshlik hissi.

Bebosh soydek toshib ketdi
Har tarafga xayollarim.
Borliq kabi maftun etdi
Orzu nomli nihollarim.

Asir bo'ldi yurakkinam
Qizg'aldoqning bo'ylariga.
Chechak otdi tilakkinam
Qaldirg'ochning uylarida.

Bu gal qarshi olayapman
O'n sakkizli bahorimni.
Ranglar ila bitayapman,
Takrorlanmas ash'orimni.

Zavqqa to'lib tabiat-la,
Gul faslida yashayapman.
O'zim bilmay ming hayrat-la
Yana bir yosh oshayapman.

VAQT

Ko'zlarga keladi qatra-qatra nam,
Nahotki bu kunlar endi qaytmaydi.
Bu hol yuragimga qiladi alam,
Afsus, vaqt o'z sirin aslo aytmaydi.

Nega vaqt degani shoshqaloq buncha,
Bir oz to'xtab orom olsa bo'lmasmi.
Axir yugurgani yetmasmi shuncha,
Ortiga bir lahza boqsa bo'lmasmi.

...Aslida yo'limiz u bilan tutash ,
Mayli, chopaversin oldinga faqat.
Bir umr behuda vaqt sovurgandan
Balki foydalidir fayzli bir soat.



MUNDARIJA

<i>Oddiy maysa bo'lay</i>	5
<i>Ezgulik</i>	6
<i>Qishloq tongi</i>	6
<i>Shunday ko'klam boshlab kelginki</i>	7
<i>Yulduzlardan yog'ilib sim-sim</i>	8
<i>Kutaman</i>	9
<i>Hayot zavqi</i>	10
<i>Xayol</i>	11
<i>Sevaman</i>	12
<i>Sen kelsang</i> ...	13
<i>Keling, yo'lingizning hamrohi bo'lay</i>	14
<i>Siz</i>	15
<i>Kelmaysan nega?</i>	15
<i>Polizlarda qarsildoq tarvuz</i>	16
<i>Poylaringda qolar hislarim</i>	17
<i>Og'rindim</i>	18
<i>O, yoshlik</i>	19
<i>Meni eslang</i>	20
<i>Kumush zarralar</i>	21
<i>Ota</i>	22
<i>Keling, mehmonginam</i>	22
<i>Do'stlik</i>	23
<i>Bir sirni aytaman</i>	24
<i>Billur parcha</i>	25
<i>Biz ham baxtli bo'larmiz bir kun</i>	26
<i>Balki</i>	27
<i>Musavvir xayol</i>	28
<i>Izlarim gul, so'zlarim gul</i>	29
<i>Vaqt</i>	30

Adabiy-badiiy nashr

Husnida Bahromova

MUSAVVIR XAYOL

She'rlar

Muharrir:	A. Sodiqov
Tex. muharrir:	N. Hoshimov
Dizayner:	O. Hasanov

Lits. AI №. 162. 2009 yil 14 avgust. Terishga berildi: 25.05.2012 yil.
Bosishga ruxsat etildi: 27.09.2012 yil. Times New Roman garniturasida.

Ofset usuli. Ofset qog'oz. Bichimi: 60x84 $\frac{1}{16}$

Nashriyot bosma tabog'i: 2,0. Shartli bosma tabog'i: 2,75.

Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 45. Bahosi shartnoma asosida.

«FARG'ONA» nashriyoti.

150114. Farg'ona shahri, Sohibqiron Temur ko'chasi, 28-uy.

“SIRIUS-MEDIA” MCHJ

100100. Toshkent shahar, Bobur ko'chasi 4.